



## ROSSIYA FEDERATSIYASI INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

**Abdurahmonova Sabina Behzod qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti fakulteti magistranti

e-mail: abdurakhmanovasabishkaa@gmail.com

Ilmiy rahbar: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent **Voxidova M.X**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20685494>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 5-iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 13-iyun 2026 yil

#### KEY WORDS

*To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), Rossiya-O'zbekiston munosabatlari, savdo aylanmasi, strategik hamkorlik, pul o'tkazmalari, energetika hamkorligi, Rosatom*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi investitsiya va savdo faoliyatining o'rni tahlil qilinadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), ikki tomonlama savdo aylanmasi, pul o'tkazmalari oqimi, yirik infratuzilma va energetika loyihalari ko'rsatkichlari statistik va qiyosiy metodologik usullar orqali tadqiq qilinadi. Tadqiqot asosan 2020-2026 yillar oralig'idagi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan. Tahlillar natijasida Rossiya O'zbekistonning muhim iqtisodiy hamkorlaridan biri ekanligi aniqlandi lekin 2022-yilgi geosiyosiy o'zgarishlar fonida Rossiya kapitalining ulushi nisbatan kamayganligi hisobiga O'zbekistonda investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish jarayoni kuchayotgani aniqlangan.*

### Kirish

O'zbekiston aholi soni va iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab, mintaqaning muhim geosiyosiy subyekti hisoblanadi. 1991-yil Mustaqillika erishgandan so'ng O'zbekiston xorijiy investitsiya va ikki tomonlama savdoni kengaytirish yo'lida izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakat YaIMi 114,96 mlrd AQSh dollariga yetib, o'sish sur'ati 6,7 foizni tashkil etdi<sup>1</sup>.

Rossiya Federatsiyasi O'zbekistonning an'anaviy va muhim iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar 2004-yilgi Strategik hamkorlik shartnomasi va 2005-yilgi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma asosida mustahkamlanib kelmoqda. 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, valyuta

<sup>1</sup> World Bank. Unleashing the Power of the Private Sector: Europe and Central Asia Economic Update, Spring 2024. Washington, DC: World Bank Group, 2024. Available at: <https://www.worldbank.org>

liberallasuvi va xorijiy investitsiyalar uchun qulay sharoitlarning yaratilishi O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqlik darajasini oshirib, Rossiya investorlari faolligining kuchayishiga xizmat qildi.

2022-yilda Rossiya va Ukraina o'rtasidagi geosiyosiy konflikt hamda G'arb davlatlari tomonidan joriy etilgan keng qamrovli iqtisodiy sanksiyalar O'zbekiston-Rossiya iqtisodiy munosabatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada O'zbekiston ayrim bir qator tovarlar bo'yicha Rossiya bozorida imkoniyatlardan foydalana boshladi. Shu bilan birga, Rossiyadan kiritilayotgan investitsiyalar ulushida nisbatan pasayish kuzatildi. Ushbu iqtisodiy o'zgarishlarni tahlil qilish esa ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi**

Xorijiy investitsiyalar nazariyasi sohasida J. Dunning (1993) tomonidan ishlab chiqilgan "eklektik paradigma" yoki OLI (Ownership, Location, Internalization) modeli eng keng qo'llaniladigan konseptual yondashuv hisoblanadi. Ushbu model investor kompaniyaning mulkchilik ustunligi (Ownership), joylashuv afzalliklari (Location) va ichki boshqaruv afzalliklari (Internalization) kombinatsiyasi orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) ni tushuntiradi. Ushbu yondashuv nuqtai nazaridan Rossiya kompaniyalarining O'zbekistondagi investitsiya faoliyati bozorni izlash (market-seeking) va resurs izlash (resource-seeking) motivlarining uyg'unligi sifatida talqin qilish mumkin. Xususan, O'zbekistonning boy energetika resurslari (tabiiy gaz va uran) hamda 38 milliarddan ortiq iste'molchidan iborat ichki bozori Rossiya investorlari uchun muhim joylashuv afzalliklarini shakllantirmoqda.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) mintaqasida iqtisodiy integratsiya va investitsiya oqimlari sohasidagi tadqiqotlar so'nggi o'n yillikda sezilarli darajada kengaydi. A.Libman va B. Kheifets (2011) o'z tadqiqotlarida postsovet makonidagi iqtisodiy integratsiya va dezintegratsiya jarayonlarini tahlil qilib, davlatlararo aloqalarning nafaqat rasmiy institutlar, balki investitsiyalar, korporativ tarmqolar, migratsiya va boshqa iqtisodiy bog'liqliklar orqali ham shakllanishini ta'kidlaydilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, Sovet davrida shakllangan texnologik, ishlab chiqarish va infratuzilmaviy aloqalar postsovet davrida ham iqtisodiy hamkorlikning muhim institutsional asoslaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston-Rossiya iqtisodiy munosabatlarida ham mazkur tarixiy-strukturaviy omil kuzatiladi. Xususan, Rossiya investitsiyalarining asosiy qismi energetika, transport va sanoat kabi tarixan o'zaro ishlab chiqarish aloqalari rivojlangan tarmoqlarga yo'naltirilgan.

Pomfret (2019) Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy ochiqlik darajasi va investitsiya muhitini tahlil qilib, O'zbekiston 2017-2019-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida investitsiya jozibadorligini sezilarli darajada oshirganini qayd etadi. Shu bilan birga, davlatning iqtisodiyotdagi yuqori ishtiroki, sud-huquq tizimining institutsional muammolari hamda norasmiy sektor ulushining mavjudligi xorijiy investitsiyalar oqimini cheklovchi omillar sifatida ko'rsatiladi. O'zbekiston 2024-yilda Iqtisodiy Erkinlik Indeksida 184 ta davlat orasida 103-o'rinni egallagan bo'lib, bu investitsiya muhitini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Pul o'tkazmalari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim makroiqtisodiy ahamiyatga ega. Ratha va Shaw tomonidan 2007-yilda ishlab chiqilgan pul o'tkazmalarini kapital oqimlarining muhim shakli sifatida talqin qiluvchi yondashuvga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda pul o'tkazmalari uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlarini qo'llab-quvvatlash, ta'limga sarflanadigan mablag'larni oshirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston esa bunga yaqqol misol bo'lib, 2024-yilda O'zbekistonga xorijdan pul o'tkazmalari YaIMning qariyb 13 foiziga teng bo'lgan va aholi farovonligini oshirish hamda kambag'allik

darajasini pasaytirishga sezilarli hissa qo'shgan. Shuningdek, pul o'tkazmalarining qariyb 77 foizi Rossiya Federatsiyasidan kelgani mamlakatning migratsiya va pul o'tkazmalari sohasida Rossiya bilan yuqori darajadagi iqtisodiy bog'liqligini ko'rsatadi.

### **Metodologiya**

Tadqiqotda ishlatilgan ma'lumotlar quyidagi rasmiy va ishonchli manbalardan olindi: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlar bazasi (2020–2024), O'zbekiston Markaziy banki valyuta operatsiyalari bo'yicha choraklik hisobotlari, Jahon banki O'zbekiston bo'yicha mamlakat sharhlari, UNCTAD Jahon investitsiya hisobotlari (2022–2024), AQSh Davlat departamentining 2024 yilgi investitsiya iqlimi to'g'risidagi bayonotlari

Tadqiqotning metodlariga keladigan bo'lsak, 4 ta quyidagi usullardan qo'llanildi: (1) Statistik tahlil — FDI oqimlari, savdo aylanmasi va pul o'tkazmalari ko'rsatkichlari hajm va ulush dinamikasini baholash uchun; (2) Qiyosiy tahlil — Rossiya investitsiyalarini Xitoy, Turkiya va boshqa asosiy hamkorlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash; (3) Sektoral tahlil — investitsiyalarning energetika, sanoat va xizmatlar sohasida taqsimlanishini o'rganish; (4) Tendensiya tahlili — 2020–2026 yillar davomida ko'rsatkichlarning o'zgarish yo'nalishlarini aniqlash.

Tadqiqotning vaqt doirasi 2020–2026 yillar bo'lib, bu esa COVID-19 davri ko'rsatkichlari bilan keyingi o'zgarishlarni qiyosiy baholash imkonini beradi. Birlamchi ma'lumotlar O'zbekiston Statistika agentligining rasmiy veb-sayti va Markaziy bank hisobotlaridan olindi.

### **Natijalar**

2020–2024 yillar davomida Rossiya Federatsiyasi O'zbekistonga kiritiladigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimida yetakchi o'rinlardan birini egallab keldi. 2023 yil 1 noyabr holatiga ko'ra, Rossiya O'zbekistonda tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi — jami 2 854 korxonalar, bu esa barcha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar umumiy sonining 21,9 foizini tashkil etadi.<sup>2</sup>

AQSh Davlat departamentining 2024 yilgi investitsiya iqlimi to'g'risidagi bayonotiga ko'ra, 2023 yilda O'zbekistonga kiritilgan 7,2 mlrd dollar FDI ichida Rossiyaning ulushi 13,4 foizni (taxminan 965 mln dollar) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Xitoydan (25,6%) keyin ikkinchi o'rindadir. 2022 yilda esa Rossiyaning FDI ulushi 21 foizga yetgan edi, bu ko'rsatkich sanksiyalar va geosiyosiy omillar ta'sirida 2024 yilga kelib 13,8 foizgacha tushdi.<sup>3</sup>

2024 yil yanvar–mart oylarida O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 107,1 trln so'm bo'lib, shundan 13,8 foiz qismi Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. Rossiya investitsiyalari jami 15 mlrd dollarga, qo'shma loyihalar portfeli esa 60 mlrd dollarga baholanmoqda.<sup>4</sup>

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi savdo aylanmasi 2017 yildagi 4,73 mlrd dollardan 2022 yilda 9,28 mlrd dollarga va 2023 yilda 9,88 mlrd dollarga oshdi. 2022 yilda o'sish sur'ati 22,9 foizni tashkil etdi, bu ko'rsatkich Rossiyaning O'zbekiston uchun eng yirik savdo sherigiga aylanganligi bilan izohlanadi.<sup>5</sup> 2023 yilda umumiy tashqi savdo aylanmasida Rossiyaning ulushi 15,8 foizni (9,88 mlrd dollar) tashkil etdi. Rossiyaga eksport 5 foizga o'sib, 3,3 mlrd

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha. Press-reliz, 2023 yil 1 noyabr.

<sup>3</sup> U.S. Department of State. 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan [Elektron resurs] / Bureau of Economic and Business Affairs. — Washington, 2024. — URL: <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar (2024 yil yanvar–mart, dastlabki ma'lumotlar). Toshkent, 2024.

<sup>5</sup> Infografika: O'zbekistonning Rossiya bilan savdosi // Review.uz. — 2023. — 4 oktabr. — URL: <https://review.uz/uz/post/infografika-torgovlya-uzbekistana-s-rossiyskoy-federatsiyey>

dollarga yetdi, import esa 5,5 foizga o'sib, 6,58 mlrd dollarga ko'paydi. Xitoy 2023 yilda Rossiyaning ortda qoldirib, birinchi o'ringa chiqdi (21,9% yoki 13,7 mlrd dollar bilan). 2022 yilda Rossiyaning O'zbekiston eksport bozorlarida ulushi 40,7 foizga yetdi — bu Rossiyada G'arb kompaniyalarining bozorni tark etishi fonida o'zbek eksportchilari uchun jozibali imkoniyat yaratganligi bilan bog'liq. Shuningdek, Import ulushi ham 17,9 foizdan 18,6 foizga oshdi.<sup>6</sup>

1-jadval

Manba: O'zbekiston Statistika agentligi, Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Savdo aylanmasi (mlrd \$)	5,8	7,6	9,28	9,88	~10,5
Eksport (mlrd \$)	2,0	2,7	3,07	3,30	~3,6
Import (mlrd \$)	3,8	4,9	6,21	6,58	~6,9
Pul o'tkazmalari (mlrd \$)	3,9	5,2	7,8	8,9	11,5
FDI ulushi (%)	~13	~15	21	13,4	13,8
Korxonalar soni	~1800	~2200	~2500	2854	~3000

tomonidan yaratilgan.

Pul o'tkazmalari O'zbekiston iqtisodiyotiing muhim moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda mamlakatga 16,7 mlrd AQSh dollari miqdorida pul o'tkazmalari kelib tushgan bo'lib, bu YaIMning taxminan 21 foizini tashkil etgan. Shundan qariyb 80 foizi Rossiya Federatsiyasidan yuborilgan. 2024 yilda O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari 2023 yilga nisbatan 30 foizga ko'payib, 14,8 mlrd dollarni tashkil qildi. Mablag'larning 77 foizi — ya'ni 11,5 mlrd dollar Rossiyadan (2023 yilga nisbatan 29 foizga ko'p) kelib tushgan. Qolgan qismi Qozog'iston (795 mln dollar), AQSh (577 mln dollar), Janubiy Koreya (534 mln dollar) va boshqa mamlakatlardan o'tkazilgan.

2025 yilda esa pul o'tkazmalari 18,9 mlrd dollarga ko'paydi (2024 yilga nisbatan 27,2 foiz o'sish). 2025 yilning yanvar–iyun oylarida O'zbekistonga 8,2 mlrd dollar kelib tushdi, shundan 6,4 mlrd dollar (78 foiz) Rossiyadan bo'lgan. Rossiyaning ulushi sekin-asta kamayib bormoqda: 2022–2023 yillardagi 80 foizdan 2025 yilga kelib 77–78 foizga tushdi. Bu O'zbekiston mehnat migrantlarining Yevropaga, Janubiy Koreyaga va boshqa yo'nalishlarga ko'chishi bilan izohlanadi.

Energetika sohasi Rossiya–O'zbekiston hamkorligining eng muhim tarmog'i hisoblanadi. 2023 yilda UzGasTrade va Gazprom o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha O'zbekistonga yiliga taxminan 2,8 mlrd kub metr gaz yetkazib bera boshlandi, bu 2022 yilgi gaz taqchilligini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Eng yirik loyiha — Rosatom tomonidan Jizzax viloyatida qurilishi rejalashtirilgan yadroviy elektr stantsiyasi hisoblanadi. 2024 yil may oyida Atomstroyeksport va O'zatom o'rtasida Markaziy Osiyoning birinchi yadroviy elektr stantsiyasini qurish bo'yicha shartnoma imzolandi. Loyiha dastlab 330 MVt umumiy quvvatiga ega oltita RITM-200N reaktorini o'z ichiga olishi belgilandi. Qurilish 2025 yil aprelda boshlandi. 2025 yil iyunda esa loyiha kengaytirildi: 2 ta 1 000 MVt quvvatli VVER-1000 va 2 ta 55 MVt RITM-200N reaktorlarini o'z ichiga olgan integral yadro

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (2022 yil yanvar–dekabr, dastlabki ma'lumotlar). Toshkent, 2023.

elektr stansiyasi rejasi tasdiqlandi.<sup>7</sup> Rosatom bosh direktori Aleksey Lixachev ma'lumotlariga ko'ra, bu loyiha Rossiya korxonalariga 2 trln rublga (taxminan 24,7 mlrd dollarga) teng buyurtmalar beradi. 2035 yilga kelib yadroviy elektr stansiyasi yiliga 15,2 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi kutilmoqda.

Rossiya kapitali ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida faol ishlaydi. Soni jihatidan Rossiya kompaniyalari O'zbekistondagi xorijiy korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi — Xitoydan ham ko'p. Asosiy tarmoqlar: savdo va xizmatlar, qurilish, neft-gaz qazib olish (Lukoil), avtomobil sanoati hamda oziq-ovqat sanoati.

### **Muhokama**

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi rolini uch asosiy o'lchov bo'yicha baholash imkonini beradi: sarmoya hajmi, savdo integratsiyasi va migratsion pul oqimlari. Uchala ko'rsatkich bo'yicha ham Rossiya 2020–2024 yillar davomida yetakchi hamkor sifatida alohida ajralib turadi. Biroq, adabiyotlar sharhi bo'limida ko'rib chiqilgan Dunning (1993) eklektik paradigmasi nuqtai nazaridan Rossiya investitsiyalarining «joylashuv ustunligi» omili — ya'ni geografik yaqinlik va sovet davrida shakllangan iqtisodiy aloqalar vaqt o'tishi bilan zaiflashib bormoqda.

Biroq, tadqiqot bir qator xavflar ham mavjudligini ko'rsatmoqda. Rossiyaga haddan ortiq bog'liqlik iqtisodiy xavflar tug'diradi. 2023 yilda Xitoy va Rossiyaning birgalikdagi ulushi tashqi savdo aylanmasida 37,7 foizga, importda esa 46,8 foizga yetdi. Jahon banki tahlilchilari ta'kidlaganidek, Rossiya iqtisodiyotining sekinlashishi O'zbekiston uchun bevosita xavf sanaladi — ayniqsa pul o'tkazmalari va eksport bozori sifatida. Cieslik va Tarsalewska (2011) tomonidan MDH mamlakatlarida aniqlangan «bir manbaga qaramlik» xavfi O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.<sup>8</sup>

2022 yildan boshlab Rossiyaga nisbatan qo'llaniladigan G'arb sanksiyalari O'zbekiston–Rossiya savdo-iqtisodiy munosabatlarida yuridik va moliyaviy murakkabliklar keltirib chiqardi. SWIFT dan uzilgan Rossiya banklari bilan operatsiyalar qiyinlashdi, transchegaraviy pul o'tkazmalari tizimi esa alternativ yo'llarni qidirmoqda. O'zbekiston banklari sanksiyaga uchragan Rossiya moliya institutlari bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatlardan ehtiyot bo'lish orqali nozik muvozanatni saqlashga intilmoqda.

Rosatom yadroviy loyihasining keng qamrovi O'zbekistonni energetika sohasida Rossiyaga uzoq muddatga bog'lab qo'yishi mumkin. Bu bir tomondan energetika taqchilligini bartaraf etish imkonini bersa, boshqa tomondan siyosiy va texnologik qaramlik xavfini oshiradi. Integral NPP loyihasi 2110 MVt quvvat berishi kutilayotgan bo'lib, bu mamlakatning hozirgi o'rnatilgan quvvatining taxminan 20 foizini tashkil etadi.<sup>9</sup>

2022 yildan boshlab O'zbekiston hukumati Rossiyaga bog'liqlikni muvozanatlash maqsadida investitsiya va savdo diversifikatsiyasini strategik ustuvorlikka aylantirdi. Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lagi (TITR) va Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston temir yo'li loyihasi (4,7 mlrd dollar) buning yorqin namunasi hisoblanadi. Pomfret (2019) ta'kidlaganidek, O'zbekistonning dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqa olmasligi transport va logistika xarajatlarini oshiradi. Shu sababli O'zbekiston uchun transport koridorlarini diversifikatsiyalash iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Fitch Ratings 2025 yilda O'zbekistonning kredit reytingini BB- dan BB ga ko'tardi, Moody's va S&P esa prognozni «barqaror»dan «ijobiy»ga o'zgartirdi. Bu investitsiya muhitining

<sup>7</sup> NucNet. Russia Signs Agreement to Build Central Asia's First Nuclear Power Plant [Elektron resurs] / NucNet – The Independent Nuclear News Agency. — 2024. — URL: <https://www.nucnet.org/news/russia-signs-agreement-to-build-central-asia-s-first-nuclear-power-plant>

<sup>8</sup> Cieslik A., Tarsalewska M. External Openness and Economic Growth in Transition Economies // Eastern European Economics. — 2011. — Vol. 49, No. 4. — P. 4–22. — DOI: 10.2753/EEE0012-8775490401.

<sup>9</sup> Interfax. Uzatom, Rosatom Sign Agreements on Configuration of NPP in Uzbekistan [Elektron resurs] / Interfax News Agency. — 2025. — URL: <https://interfax.com/newsroom/top-stories/113999/>

yaxshilanishidan dalolatdir. 2024 yilgi 309 ta loyihadan iborat 18 mlrd dollarlik investitsiya dasturida asosiy e'tibor energetika va neft-gaz sanoatiga qaratildi. AQSh, Saudiya Arabistoni, BAA, Germaniya va Xitoy kompaniyalari tobora faollashib bormoqda.

**Xulosa**

Ushbu tadqiqotda 2020–2026 yillar davomida Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, ikki tomonlama savdo, pul o'tkazmalari va energetika loyihalari kesimida tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, Rossiya ushbu davrda O'zbekistonning eng muhim iqtisodiy hamkorlaridan biri bo'lib qoldi: 2023 yil holatiga ko'ra 2 854 ta Rossiya kapitalidagi korxonalar faoliyat yuritdi, savdo aylanmasi 9,88 mlrd dollarga yetdi, pul o'tkazmalari 11,5 mlrd dollarni tashkil etib umumiy oqimning 77 foizini ta'minladi. Ayni paytda, 2022 yilgi geosiyosiy o'zgarishlar fonida Rossiyaning FDI ulushi 21 foizdan 13,4–13,8 foizga tushib, hamkorlik shakli o'zgarib bormoqda.

Trans-Kaspiy transport yo'lagi, Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston temir yo'li va yangi shariklar jalb etish dasturlari Rossiyaga iqtisodiy jihatdan bog'lanib qolmaslik strategiyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pul o'tkazmalari yo'nalishidagi diversifikatsiya — Yevropa, Janubiy Koreya va AQShdan keladigan o'tkazmalarning o'sishi — ham xuddi shu tendensiyani aks ettiradi. Kredit reytinglarining ko'tarilishi va 2030 yilga kelib YaIMni 200 mlrd dollarga yetkazish maqsadi esa mamlakatning xalqaro investitsion jozibadorligini yanada oshirish niyatidan dalolatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. World Bank. Unleashing the Power of the Private Sector: Europe and Central Asia Economic Update, Spring 2024. Washington, DC: World Bank Group, 2024. Available at: <https://www.worldbank.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha. Press-reviz, 2023 yil 1 noyabr.
3. U.S. Department of State. 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan / Bureau of Economic and Business Affairs. — Washington, 2024. — URL: <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar (2024 yil yanvar–mart, dastlabki ma'lumotlar). Toshkent, 2024.
5. Infografika: O'zbekistonning Rossiya bilan savdosi // Review.uz. – 2023. – 4 oktabr. – URL: <https://review.uz/uz/post/infografika-torgovlya-uzbekistana-s-rossiyskoy-federaciyey>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (2022 yil yanvar–dekabr, dastlabki ma'lumotlar). Toshkent, 2023.
7. NucNet. Russia Signs Agreement to Build Central Asia's First Nuclear Power Plant / NucNet – The Independent Nuclear News Agency. — 2024. — URL: <https://www.nucnet.org/news/russia-signs-agreement-to-build-central-asia-s-first-nuclear-power-plant>
8. Cieslik A., Tarsalewska M. External Openness and Economic Growth in Transition Economies // Eastern European Economics. — 2011. — Vol. 49, No. 4. — P. 4–22. — DOI: 10.2753/EEE0012-8775490401.

9. Interfax. Uzatom, Rosatom Sign Agreements on Configuration of NPP in Uzbekistan / Interfax News Agency. — 2025. — URL: <https://interfax.com/newsroom/top-stories/113999/>
10. International Trade Administration. Uzbekistan – Market Overview Elektron resurs / U.S. Department of Commerce. — Washington, 2025. — URL: <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-market-overview>
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari bo'yicha 2024 yil yakunlari sharhi / O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. — Toshkent, 2025. — URL: <https://www.cbu.uz>
12. World Bank. Uzbekistan Overview: Development news, research, data Elektron resurs / The World Bank Group. — Washington, 2025. — URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>
13. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation for Development / United Nations Conference on Trade and Development. — Geneva: United Nations, 2024. — 240 p. — ISBN 978-92-1-113053-219 Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy / J.H. Dunning. — Wokingham: Addison-Wesley, 1993. — 687 p. — ISBN 0-201-17582-9.
14. Libman A., Kheyfets B. Corporate Integration in the Post-Soviet Space: A New Factor of Regional Economic Development // Problems of Economic Transition. — 2011. — Vol. 54, No. 2. — P. 3-78. — DOI: 10.2753/PET1061-1991540201.
15. Pomfret R. The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road / R. Pomfret. — Princeton: Princeton University Press, 2019. — 296 p. — ISBN 978-0-691-17055-5.
16. Ratha D., Shaw W. South-South Migration and Remittances / D. Ratha, W. Shaw // World Bank Working Paper. — Washington: World Bank, 2007. — No. 102. — 68 p. — URL: <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/6733>